

The Use Of Ideonyms In The Works Of Olmas Umarbekov

Jonbo'tayeva Zumradxon Abdujabbarovna

Teacher of the Department of Philology,

Turan International University

zumradxonjonbotayeva@gmail.com

Abstract

This article analyzes the use of ideonyms in the works of the famous Uzbek writer O'lmas Umarbekov. It explores the origin, meaning, and linguistic function of ideonyms within the field of onomastics. The study categorizes ideonyms by their grammatical forms and discusses the deeper meanings behind these titles. Additionally, the article points out the personal or historical inspirations for some of the ideonyms used in his literary works.

Keywords: ideonym, title, artistic, semantic and linguistic features.

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashhur o'zbek yozuvchisi O'lmas Umarbekov asarlaridagi ideonimlarning qo'llanilishi tahlil qilingan. Maqolada ideonimlarning kelib chiqishi, mohiyati va onomastika fanidagi o'rni yoritilgan. Muallif yozuvchining bir qancha asarlari sarlavhalarini tahlil qilib, ularning badiiy, semantik va lingvistik xususiyatlarini ochib beradi. Umarbekov ijodidagi ideonimlar turli tuzilmalarga ajratilib, ularning g'oyaviy-badiiy yuklamalari tahlil qilingan. Shuningdek, adib asarlaridagi ba'zi ideonimlarning kelib chiqishi va ularning tarixiy yoki shaxsiy motivlar bilan bog'liqligi ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ideonim, sarlavha, badiiy, semantik va lingvistik xususiyat.

O'zbek tilshunosligida onomastika sohasi tez rivojlanib borayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Onomastikaning xususiy muammolariga oid qator tadqiqotlarning yuzaga kelishi onimlarning o'rganilmagan qirralarining lingvistik mohiyatini har jihatdan tadqiq qilish vazifasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Onomastikaning shakllanishi xususidagi asosiy ma'lumotlar jahon tilshunosligida A.B.Superanskaya, N.V.Podolskaya, B.A.Nikonov, Suprun kabi olimlarning, o'zbek tilshunosligida esa H.Hasanov, E.Begmatov, N.Oxunov, Y.I.Avlaqulov, X.Y.Maqsudova kabi olimlar ishlarida berilgan. Biz bugungi maqolamizda ideonimlar haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Ma'lumki, ideonimlar, bibliionimlar ham tilning onomastik birliklari qatoriga kiradi. "Bibliionim" yunoncha (bibliov - kitob + onoma – atoqli ot) so'zlaridan olingan bo'lib, "har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarga berilgan nom (sarlavha); ideonim turi", degan ma'noni bildiradi. [1] Ideonim esa yunoncha (idea - idea, g'oya + onoma –

atoqli ot) so'zlaridan olingan bo'lib, "tarixiy asarlar, hujjatlar atoqli oti, artionim, bibliionim, gemereonim, geortonim, dokumentonim, poetonim, xrononim, kabi atoqli ot tiplaridan biri", ma'nolarini bildiradi [2]

Har qanday badiiy asar sarlavhasi orqali yozuvchi yoki shoir kitobxonga qaratilgan birinchi so'zini aytadi. Bu haqida taniqli rus tilshunosi A.M. Peshkovskiy shunday degan edi: "Kitobxon ma'lum bir asarni o'qishga kirishar ekan, o'sha asarning mazmuni bilan qiziqadi. Sarlavhada esa u asar mazmuniga ishorani yoki uning ixcham ifodasini ko'radi. Demak, biror asarning sarlavhasi faqat nom bo'lishdan boshqa yana nimanidir anglatadi" [3]. Taniqli yozuvchimiz O'lmas Umarbekov asarlariga sarlavha qo'yishga jiddiy qaragan. Adib asarlari nomlanishiga e'tibor beraylik: "Xatingni kutaman" (1956), "Qiyomat qarz" (1976), "Yer yonganda" (1993), "Sevgim, sevgilim" (1963), "Kimning tashvishi yo'q" (1965), "Cho'li Iroq" (1971), "Oq qaldirg'och" (1974)

, “Urush farzandi” (1972) , “Shoshma, quyosh” (1978) , “Sevgi afsonasi”(1972) , “Changalzor qonuni”(1973) va boshqalar. “Qiyomat qarz” hikoyasining nomlanishiga diqqatimizni qaratamiz. “Qarz” so’zining lug’aviy ma’nosi “kesish” degani. Qarz beruvchi o’z molidan bir qismini kesib (uzib) bergani bois shunday deyilgan. Qarz “kimdir foydala -nishi va qaytarib berishi uchun berilgan mablag’ “ – deya ta’riflangan.[4] Asar qahramoni Sarsonboy ota o’ziga omonat berilgan narsani qaytarish uchun yigirma yil sarson bo’ladi. Haydarali tashlab ketgan narsa faqat qarz emas, bir odamning orzu-niyatlari ham hisoblanadi.

“ Haydarali esa, otasidan bir oy keyin jo’naganicha, bedarak ketdi. O’g’lining o’rtog’ini o’zi rayongacha kuzatib bordi. Kuzatadigan uning biron kimsasi ham yo’q edi.Jo’naydigan kuni Haydarali eshak aravaga ortib, ikkita qo’y olib keldi. Shunda G’ofurdan qoraxat kelganiga yil bo’lgan edi. — Amaki, shular sizda tursin, — dedi iymanib. — Dadam qo’yni yaxshi ko’rar edilar. Qaytganlarida to’y-po’y kilardik... Agar malol kelmasa... — Xo’p, bo’tam, — dedi Sarsonboy ota. — Suruvning ichiga qo’shib yuboraman. Malol keladigan joyi yo’q.” [5]

Adiblar ,odatda, o’z asarlariga badiiy tus berib ,yozish uchun asos qilib olgan voqealariga ham turli to’qima qo’shimchalarni kiritishadi. Biroq “Mangu hayot bo’sag’asida “(Qizimga maktublar”) asari noodatiy bo’lib, unda adib Moskva shahrida davolanayotganida qiziga bo’lgan sog’inclarini tasvirlagan. O’Umarbekov asarlari tarkibida ham ideonimlarni badiiy vosita sifatida ishlatgan. “Sovg’a “ hikoyasida shunday parcha bor: “...Shahodat xola uyga qanday yetib kelganini bilmadi. Keldi-yu, pulni kechagina o’qib o’tirgan **“Yusuf va Zulayho”**ning o’rtasiga solib,tokchaga qo’yib qo’ydi...”[6]. “Oq qaldirg’och” hikoyasining nomlanishida esa bulg’or adabiyotining mashhur yozuvchisi Emin Pelikning **“Oq qaldirg’och”** nomli asari sabab bo’lganini adib “Qizimga maktublar” asarida aytib

o’tgan. O’Umarbekov ijodiy merosi turli xil asarlardan tashkil topgan. Biz o’rganilgan materiallar asosida O’Umarbekov asarlariga qo’yilgan nomlar –ideonimlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1.Yakka turdosh ot so’zdan iborat ideonimlar:” Yulduzlar”, “Oqsoqol” , “Hikoyalar”, ”Ko’prik” ,”Sud”, “Komissiya” .
 2. Yakka atoqli ot so’zdan iborat ideonimlar:”Hadicha”, ”Charos”, “Hotamtoy”, ”Vela”.
 - 3.Qaratqich kelishigidagi ot birikmalardan iborat ideonimlar: “Muhabbat qo’shig’i”, “”Gayduk qizi”, “Marusya xolaning miltig’i”,”Bahor nafasi”.
 - 4.Sifatlovchi aniqlovchili ideonimlar: “Shirinsoy oqshomlari”, “Oltin yaproqlar”, “Qiyomat qarz”, “Qaytar dunyo”.
 - 5.Uyushiq bo’laklar asosida shakllangan ideonimlar: “Ota va o’g’il”, “Fotima va Zuhra” , “Cho’pon Vasil va uning farzandlari”, “Yigit va Qiz”
 - 6.Sodda gap shaklida qo’llangan ideonimlar: “Kimning tashvishi yo’q”, “O’zgalar uchun...””Menga ishonmaysanmi?”,”Odam bo’lish qiyin”,
 - 7.Ko’makchili birikma shaklida qo’llangan ideonimlar: “Arizasiga ko’ra “, 8.To’liqsiz gap shaklida qo’llangan ideonimlar:”Yer yonganda..”,”Yo’lda” , “Mangu hayot bo’sag’asida...”
 - 9.Tarkibida undalma ishtirok etgan ideonimlar: “Shoshma,quyosh” .
- O’lmas Umarbekov asarlari shu kunga qadar mazmun jihatidan ,asar tili ,adibning badiiy mahoratiga ko’ra tahlil qilingan. Endi adib asarlarini keng miqyosda ideonomik tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

References:

- Begmatov E., Uluqov N. O’zbek onomastikasi terminlarining izohli lug’ati. Namangan , 2006. – B. 21
- Begmatov E., Uluqov N. O’zbek onomastikasi terminlarining izohli lug’ati. Namangan , 2006. – B. 48.
- Buronova, X., & Aliqulova Sojida , A. S. . (2023). O’ZBEK BADIY



ASARLARIDA EKZOTIZMLARNING
QO‘LLANISH XUSUSIYATI.
Журнал иностранных языков и
лингвистики, 5(5). извлечено от
[https://fil.jdpu.uz/index.php/fil/article/
view/7752](https://fil.jdpu.uz/index.php/fil/article/view/7752)